NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.22.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAZAKOV AZIZ ABDUKAXAROVICH

FARG‘ONA VODIYSI DARAXT VA BUTALARINING MIKOBIOTASI (O‘ZBEKISTON HUDUDIDA)

03.00.05 – Botanika

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UO‘K: **582.623.2-582.287.2**

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological sciences

Abdurazakov Aziz Abdukaxarovich
“Farg‘ona vodiysi daraxt va butalarining mikobiotasi”
(O‘zbekiston hududida).....**3**

Абдуразаков Азиз Абдукахарович
“Микобиота деревья и кустарников Ферганской долины”.
(В регионе Узбекистана)…….....**21**

Abdurazakov Aziz Abdukaxarovich
“Mycobiota of trees and shrubs of the Fergana Valley”. (In region of the Uzbekistan).....**41**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опублокованных работ
List of published works…….....**45**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.22.05 RAQANLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAZAKOV AZIZ ABDUKAXAROVICH

FARG‘ONA VODIYSI DARAXT VA BUTALARINING MIKOBIOTASI (O‘ZBEKISTON HUDUDIDA)

03.00.05 – Botanika

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazrligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/B433 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.flora_fauna.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Gafforov Yusufjon Shermatovich** biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Haytbayeva Nodira Seytjanovna** Qishloq xo’jalik fanlar doktori, katta ilmiy xodim
	Tojiboyev Sharobiddin Jamolovich biologiya fanlar nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg’ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.B.22.05 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «28» noyabr kuni soat 12^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316 - uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel.: (+99869) 227-06-12, faks (+99869) 227-07-61, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3139-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316 - uy, Tel.: (+99869) 227-29-81.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «09» noyabr kuni tarqatildi.
(2026 yil «09» noyabrdagi 5-sonli reestr bayonnomasi)

A. E. Zaynabidinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

X.R. Xoshimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD.

D.B. Dexqonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyo aholisi sonining izchil ortib borishi hamda inson faoliyati ko‘lamining hududiy jihatdan kengayishi natijasida tabiiy ekotizimlarga antropogen bosim kuchaymoqda. Bunday ta’sirlar tabiiy hududlarda, jumladan, o‘rmon ekotizimlarida mikobiota tarkibining o‘zgarishi va zamburug‘ turlari xilma-xilligining ortishiga olib kelmoqda. Antropogen omillar ta’sirida yuzaga kelgan sharoitlar mahalliy mikroorganizmlar, xususan, fitopatogen zamburug‘lar faolligining kuchayishi va ular qo‘zg‘atadigan kasalliklar ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada daraxt va butalarning zararlanishi, ularning tabiiy maydonlarining qisqarishi hamda ekotizimlarning tabiiylik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Shu bois bilan daraxt va butalarda uchraydigan zamburug‘ turlarini, ayniqsa, fitopatogen shakllarini aniqlash hamda ularning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish zarur hisoblanadi.

Mikologik tadqiqotlar, avvalo, iqtisodiy ahamiyatga ega o‘simliklarda uchraydigan zamburug‘larni taksonomik jihatdan tahlil qilish, ularning bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda kasallik qo‘zg‘atuvchi turlarini identifikatsiya etishga qaratiladi. Bunday yondashuv o‘simliklar salomatligini saqlash, fitosanitar barqarorlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘rmon maydonlari va tabiiy landshaftlarning qisqarishi, shuningdek, o‘simliklar dunyosiga, xususan, dorivor o‘simliklar hamda xomashyo sifatida qadrlanadigan daraxt va butalarga yetarli e’tibor qaratilmasligi natijasida fitotsenozlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Natijada zamburug‘larning saprotrof, fakultativ parazit yoki obligat parazit sifatidagi yashash shakllari faol namoyon bo‘lib, o‘simliklarning fitosanitar holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, nam iqlim sharoiti ustun bo‘lgan vodiy hududlarida zamburug‘larning saprotrof shakldan faol patogen holatga o‘tishi natijasida tabiiy daraxt va butalarning yoppasiga kasallanishi, qurib qolishi yoki tashqi morfologik belgilarida jiddiy nuqsonlar yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu holat hudud fitotsenozlarining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keladi. Shu bois, daraxt va buta o‘simliklari mikobiotasini tizimli ravishda o‘rganish, zamburug‘larning tur tarkibini aniqlash hamda ularning xo‘jayin o‘simliklar bilan o‘zaro aloqalarini baholash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Xususan, Farg‘ona vodiysi sharoitida o‘suvchi daraxt va butalarda tarqalgan zamburug‘ turlarining xilma-xilligini o‘rganish, kasallik qo‘zg‘atuvchi turlarni aniqlash, ularning zamonaviy konspektini tuzish, GAT xaritalari hamda ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi.

Respublikamizda o‘simliklar dunyosi bioxilma-xilligini muhofaza qilish, ularda tarqalgan zamburug‘larning tur tarkibini aniqlash, tabiiy hududlar barqarorligini ta’minlash, shuningdek, dorivor va iqtisodiy ahamiyatga ega daraxt hamda butalarning zamburug‘lar bilan zararlanishi va ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni o‘rganish yo‘nalishida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Botanika instituti ilmiy xodimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilib, muhofaza choralari ishlab chiqilmoqda. 2019-2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida biologik xilma-xillikni saqlash va undan oqilona foydalanish, muhofazaga muhtoj tabiiy hududlarni saqlab qolish, rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy landshaftlar qisqarishining oldini olish, o‘simliklar dunyosining noyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash hamda muhofaza qilish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, Farg‘ona vodiysi daraxt va butalari mikobiotasining tur tarkibini aniqlash, mavsumiy rivojlanishini asoslash, keng tarqalgan kasalliklarni o‘rganish, GAT xaritalarini yaratish va olingan natijalarni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 30-maydagi PF–90-son “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi PQ–197-son “O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 82–I-son “1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019–2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentyabrdagi O‘RQ–409-son “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda B.D. Kleyner (1958) tomonidan dastlabki mikologik tadqiqotlar olib borilgan; Ya.S. Soliyeva (1989) Surxondaryo viloyati yuksak o‘simliklarida tarqalgan mikromitsetlarni; Sh.G. Kamilov (1991) Toshkent Botanika bog‘i o‘simliklarida tarqalgan mikromitsetlarni; X.X. Nuraliyev (1998) Qashqadaryo viloyati yuksak o‘simliklari mikromitsetlarini; Ya.S. Saliyeva va Yu.Sh. G‘afforov (2002) Namangan viloyatida sferopsidal zamburug‘larning tarqalish shakllarini, 2003-yilda esa

Namangan viloyati o‘simliklaridagi un-shudring zamburug‘larini tadqiq etgan. Farg‘ona vodiysi hududida Yu.Sh. G‘afforov (2005) Namangan viloyati yuksak o‘simliklarida uchraydigan mikromitsetlarni o‘rganib, O‘zbekiston mikobiotasi uchun 25 tur mikromitsetni ilk bor qayd etgan; M.M. Iminova (2009) Farg‘ona vodiysi makromitsetlarini; I.M. Mustafayev (2018) Nurota qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklarida tarqalgan mikromitsetlarni; J.P. Sherqulova (2018) Qashqadaryo vohasi sharoitida introduksiya qilingan manzarali daraxt va butalarda tarqalgan mikromitsetlarni; I.Z. Ortiqov (2023) Zomin suv havzasi yuksak o‘simliklarining patogen mikromitsetlarini; I.Y.O‘rinboyev (2026) shimoliy-sharqiy O‘zbekiston hududida tarqalgan yuksak o‘simliklarning zang zamburug‘larini o‘rgangan.

Zamburug‘lar taksonomiyasi va molekulyar filogeniyasiga oid MDH davlatlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda: I.V. Bilder (2004) Qirg‘iziston o‘rmonlaridagi daraxt va butalarning 171 tur mikromitsetini o‘rganib, 57 ta yangi turni aniqlagan; N.N. Kolemasova va N.V. Kovalevskaya (2009) daraxt va butalarda uchraydigan zamburug‘ kasalliklarini, jumladan, dog‘lanish, zang va barg deformatsiyalarini o‘rganib, tegishli ilmiy ma’lumotlarni keltirgan. M.V. Sogonov et al. (2008) Gnomoniaceae oilasiga mansub zamburug‘ turlarining o‘simlik barglarida tarqalishini o‘rgangan. Osiyolik mikologlarning tadqiqotlarida: P.W. Crous (2009) Mycosphaerella turkumi anamorf shakllarining taksonomiyasi va filogeniyasini tadqiq etgan; Schoch et al. (2009) Dothideomycetes sinfi turlarini filogenetik tahlil qilgan; D.L. Hawksworth et al. (2011) zamburug‘larning zamonaviy nomenklaturasiga oid tadqiqotlarni amalga oshirgan; K.D. Hyde et al. (2013) Dothideomycetes sinfi zamburug‘larini o‘rgangan; K.D. Hyde et al. (2016) zamburug‘larning filogenetik tahlilini amalga oshirgan; D.N. Wanasinghe et al. (2017) Camarosporium turkumi turlarini tadqiq etgan; D.N. Wanasinghe et al. (2018) Rosaceae oilasi vakillarida uchraydigan zamburug‘larni filogenetik tahlil qilgan hamda jigarrang dog‘lar hosil qiluvchi Didymella turkumi turlarining taksonomiyasini o‘rgangan; M. Rashmi et al. (2019) zamburug‘larning xilma-xilligini ekologik jihatdan tahlil qilib, turlar ro‘yxatini keltirgan; N.N. Wijayawardene et al. (2020) tomonidan tegishli ma’lumotlar yoritilgan; X.L. Fan et al. (2020) Cytospora turkumiga mansub 13 ta yangi tur haqida ma’lumot keltirgan; S.Q. Tao (2020) Xitoyda Gymnosporangium turkumi turlarining taksonomiyasi va filogeniyasini tahlil qilgan; P. Zhao et al. (2020) Malus daraxtida uchraydigan Gymnosporangium turlarini aniqlagan.

Ammo yuqorida keltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasi haqidagi ma’lumotlar yetarli darajada yoritilmagan. Shu nuqtai nazardan, Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar zamburug‘lari bioxilma-xilligini o‘rganish, ularni mikologik va sistematik jihatdan tahlil qilish hamda zamburug‘ kasalliklarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2014-0830174425 “Janubiy O‘zbekiston dendroflorasining zamburug‘lari va ularning tarqalish xaritasini tuzish (Surxondaryo viloyati qismida)” (2015-2017) hamda PZ-

20170921183 “Shimoliy Turkiston botanik-geografik rayoni dorivor o‘simliklarining zang zamburug‘lari va ularning tarqalish xaritasini tuzish” (2015-2020) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston qismida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasining tur tarkibi va taksonomik xilma-xilligini aniqlash, zamburug‘larning xo‘jayin o‘simliklar, balandlik mintaqalari va mavsumlar bo‘yicha tarqalish qonuniyatlarini ochib berish hamda ularning zamonaviy konspekti va GAT xaritalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg‘ona vodiysi daraxt va butalarida tarqalgan zamburug‘larning tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish;

Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar zamburug‘larini Markaziy Osiyoning ayrim hududlari mikobiotasi bilan qiyosiy tahlil qilish;

keng tarqalgan zamburug‘ kasalliklarini aniqlash;

daraxt va butalarda tarqalgan zamburug‘larning tik mintaqalar hamda mavsumiy rivojlanish bo‘yicha tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish;

zamburug‘larning GAT xaritalari hamda zamonaviy konspektini tuzish.

Tadqiqotning obyekti. Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalarda uchraydigan zamburug‘lar tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar zamburug‘larining tur tarkibi, taksonomiyasi, zamonaviy konspekti va mavsumiy tarqalish qonuniyatlari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarini amalga oshirishda marshrutli ekspeditsiya, mikologik, fitopatologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor fan uchun yangi 1 tur, O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi 17 tur hamda Farg‘ona vodiysi uchun yangi 22 tur zamburug‘ aniqlangan;

ilk bor Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasining GAT xaritalari tuzilgan;

ilk bor Farg‘ona vodiysi daraxt va butalarida aniqlangan 251 tur zamburug‘ning zamonaviy konspekti tuzilgan;

zamburug‘larning 72 turi yangi xo‘jayin o‘simliklarda qayd etilgan hamda daraxt va butalarda uchraydigan zamburug‘ kasalliklari aniqlangan;

daraxt va butalar mikobiotasining o‘simlik oilalari va tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishi hamda mavsumiy rivojlanish qonuniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston qismida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasiga mansub 251 tur zamburug‘ning zamonaviy konspekti shakllantirilib, ularning geografik tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari tuzilgan. Olingan ma’lumotlardan hudud mikobiotasining elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish, zamburug‘lar xilma-xilligini monitoring qilish hamda keyingi mikologik tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Daraxt va butalarda uchraydigan zang, un-shudring, chirish va turli dog‘lanish kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi zamburug‘lar aniqlanib, ularning xo‘jayin o‘simliklar,

balandlik mintaqalari va mavsumlar bo‘yicha tarqalishiga oid ma’lumotlar tizimlashtirilgan. Olingan natijalardan o‘rmon xo‘jaliklari va tabiiy dendrofloraning fitosanitar holatini baholash, zamburug‘ kasalliklari monitoringini tashkil etish hamda profilaktika tadbirlarini rejalashtirishda foydalanish imkoniyati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasining taksonomik tur tarkibi aniqlangani, O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi turlar qayd etilgani, zamburug‘larning mavsumiy, tik mintaqalar hamda xo‘jayin o‘simlik oilalari bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari asoslangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabiiy daraxt va butalarda uchraydigan zamburug‘ kasalliklarini erta tashxislash, o‘simliklarni himoya qilish hamda zamburug‘ kasalliklariga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda, shuningdek, oliy ta’lim hamda kasb-hunar ta’limi talabalari uchun “Zamburug‘lar ekologiyasi”, “Daraxt va butalarni zamburug‘ kasalliklaridan himoya qilish” kabi darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona vodiysida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasini tadqiq qilish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

daraxt va butalar zamburug‘larining mavsumiy rivojlanishi, o‘simlik oilalari hamda tik mintaqalar bo‘yicha tarqalishiga oid ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti hamkorligidagi xalqaro “GLOBAL AXBOROT MARKAZI”ga joriy etilgan (GBIF.uz, 2024-yil 5-martdagi 005-son guvohnoma). Natijada daraxt va butalarning holatini saqlab qolish, tabiiy landshaftlar va o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirishda zamburug‘ kasalliklariga chidamli daraxt hamda buta turlarini tanlash imkoniyati yaratilgan;

Farg‘ona vodiysi daraxt va butalarida uchraydigan zamburug‘larning 251 turiga mansub 623 tadan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga qarashli Toshkent mikologiya gerbariysi (TASM) fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 25-yanvardagi 4/1255-174-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu namunalar respublika hududlarida daraxt va butalarda uchraydigan zamburug‘ kasalliklari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini yaratish va monitoringni amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

I bobida Mikologik tadqiqotlarning tahlili Mikologik tadqiqotlar dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshlagan bo‘lib, XIX asrning 1830–1840-yillaridan boshlab o‘simliklarda zamburug‘ kasalliklarining paydo bo‘lish sabablari va qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada germaniyalik A. de Bary, fransiyalik botanik olim Lui Rene Tyulyan, rossiyalik M.S. Voronin kabi botanik-mikolog olimlar mikroskopik zamburug‘larni o‘rganishga muhim hissa qo‘shgan.

MDH mamlakatlari va xorijda daraxt hamda buta o‘simliklarida uchraydigan zamburug‘lar, ularning taksonomiyasi, filogeniyasi va ekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, И.В. Бильдер (2004), Schoch et al. (2009), P.R. Johnston et al. (2019), Sajeewa S.N. et al. (2016) tomonidan zamburug‘larning sistematikasi va filogeniyasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Markaziy Osiyo o‘simliklari mikobiotasini o‘rganishga doir dastlabki fundamental ma’lumotlar esa Н.Г. Запрометов (1928), П.Н. Головин (1949, 1950, 1956), Н.И. Гапоненко (1965), Т.С. Панфилова va Н.И. Гапоненко (1963), Б.Д. Клейнер (1958) ishlarida bayon etilgan bo‘lib, ularda daraxt va buta o‘simliklarida 120 tur zamburug‘ning uchrashi qayd etilgan. Shuningdek, Н.И. Гапоненко va boshqalar (1983), С.С. Рамазанова va boshqalar (1986, 1987), М.Ш. Сагдуллаева va boshqalar (1989, 1990), М.Г. Гулямова va boshqalar (1990), Х.М. Киргизбаева va boshqalar (1997) tomonidan zamburug‘ turlari aniqlangan, ularning tavsiflari berilgan va tegishli aniqlagichlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda yuksak o‘simliklar mikobiotasini o‘rganish bo‘yicha ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Я.С. Солиева (1989), Ш.Г. Камилов (1991), Х.Х. Нуралиев (1998), Ж.П. Шеркулова (2018), И.М. Мустафаев (2018), I.Z. Ortiqov (2023), Ю.Ш. Ғаффоров (2016), Y.S. Gafforov (2014, 2017), Y. Gafforov va D. Rakhimov (2017), Y.S. Gafforov et al. (2015) hamda O‘zR FA Botanika instituti mikolog olimlari tomonidan yuksak o‘simliklar mikobiotasiga oid muhim ilmiy ma’lumotlar olingan. Shuningdek, 2015–2017-yillarda “Janubiy O‘zbekiston dendroflorasi zamburug‘lari va ularning tarqalish xaritasini tuzish”, 2018–2020-yillarda esa “Shimoliy Turkiston botanik-geografik rayoni dorivor o‘simliklarining zang zamburug‘lari va ularning tarqalish xaritasini tuzish” mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Farg‘ona vodiysi hududida Н.П. Кучми (1970), Ю.Ш. Ғаффоров va Я.С. Солиева (2002), Ю.Ш. Ғаффоров (2005, 2016), Yu.Sh. Gafforov et al. (2020), Y. Gafforov and A. Ordynets (2020) tomonidan mikologik tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda O‘zbekistonda tarqalgan aphyllophoroid zamburug‘larning

geografik tarqalish nuqtalari va ularga oid ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. M.M. Иминова (2009) tomonidan esa Farg‘ona vodiysi makromitsetlari o‘rganilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida tadqiqot materiallari va usullari bayon etilgan. Xo‘jayin o‘simlik turlarini aniqlashda M.M. Арифхонова (1967), “Флора Узбекистана” I–VI jildlari (1941–1962), “Флора Узбекистана. Новый том III” (2019), A.У. Усмоновning “Dendrologiya” asari (1974), “Деревья и кустарники” (1949, 1956, 1960) kabi aniqlagichlar va ilmiy manbalardan foydalanilgan. O‘simliklarning zamonaviy nomlari POWO (powo.science.kew.org) va Plantarium (plantarium.ru) ma’lumotlar bazalari asosida tekshirilgan.

Zamburug‘larni mikroskop yordamida o‘rganish, ajratish, tur tarkibini aniqlash hamda kasallik belgilari kuzatilgan yuksak o‘simlik namunalarini laboratoriya sharoitida tahlil qilishda MBS-9 binokulyar, MBI-3, Motic B1 hamda 300M (HDCE-X5) trinokulyar mikroskoplaridan foydalanilgan. Tadqiqot ishlari Н.А. Наумов (1937), Г.И. Роскин (1967), И.И. Журавлёв (1979), Н.А. Наумов va В.Е. Козлов (1954), В.П. Исиков va Н.И. Конопля (2004), И.А. Дудка va С.П. Бассер (1952), U. Braun va K. Schubert (2007), K.D. Hyde et al. (2013, 2016, 2020), J. Stenlid (2005), S. Takamatsu et al. (2007) hamda boshqa mualliflarning uslubiy qo‘llanmalari asosida bajarilgan. Zamburug‘larning zamonaviy nomenklaturasi MycoBank va Index Fungorum ma’lumotlar bazalari asosida berilgan.


GAT xaritalarini yaratish uchun dastlab MS Excel 2010 dasturi yordamida ma’lumotlar bazasi tayyorlangan. Zamburug‘ turlarining geografik koordinatalari GPS Garmin qurilmasi va Google Earth dasturi yordamida WGS84 koordinatalar tizimida aniqlangan. Olingan koordinatalar MS Excel fayliga kiritilib, so‘ng ArcGIS 10 dasturiga uzatilgan. Ushbu dastur yordamida har bir zamburug‘ turi uchun GAT xaritalari tayyorlangan (1-rasm).

Ikkinchi bob: “**Farg‘ona vodiysi daraxt va butalari mikobiotasining taksonomik tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida Farg‘ona vodiysida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar davomida yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalari hamda ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlar asosida tadqiq etilgan hudud mikobiotasining taksonomik tarkibi tahlil qilingan. Natijada Farg‘ona vodiysi daraxt va butalari mikobiotasida 2 bo‘lim, 7 sinf, 25 tartib, 60 oila, 114 turkumga mansub 251 tur zamburug‘ aniqlangan.

Tadqiq etilgan hududda aniqlangan zamburug‘larning asosiy qismini Ascomycota bo‘limi vakillari tashkil etgan. Ushbu bo‘lim 5 sinf, 19 tartib, 43 oila va 83 turkumga mansub 199 turni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatkich jami aniqlangan



1-rasm. Tadqiqot hududi xaritasi



2-rasm. Zamburug‘ turlarining bo‘limlar bo‘yicha foiz hisobida taqsimlanishi

zamburug‘larning 79,3 % ini tashkil etadi. Keyingi o‘rinda Basidiomycota bo‘limi vakillari qayd etilib, ular 2 sinf, 6 tartib, 17 oila va 31 turkumga mansub 52 turni o‘z ichiga olgan hamda umumiy mikobiotaning 20,7 % ini tashkil etgan (2-rasm, 1-jadval).


1-jadval

Farg‘ona vodiysi daraxt va butalari mikobiotasining taksonomik tahlili

Bo’lim	Taksonlar soni				
	Sinf	Tartib	Olila	Turkum	Tur
Ascomycota	5	19	43	83	199
Basidiomycota	2	6	17	31	52
Jami:	**7**	**25**	**60**	**114**	**251**

Ascomycota bo‘limi tarkibida Dothideomycetes sinfi yetakchi o‘rinni egallab, 9 tartib, 23 oila va 38 turkumga mansub 102 turdan iborat bo’lib, ushbu bo‘limga mansub turlarning 51,3 % ini tashkil etdi. Keyingi o‘rinda Sordariomycetes sinfi vakillari qayd etilib, ular 8 tartib, 14 oila, 29 turkum va 53 turdan iborat bo‘lgan hamda 26,6 % ni tashkil etishi aniqlandi. Leotiomycetes sinfi 1 tartib, 5 oila, 15 turkum va 41 tur (20,6 %) bilan, Taphrinomycetes sinfi esa 1 tartib, 1 oila, 1 turkumga mansub 3 tadan turlarining har biri 1,5 % dan ulushni egalladi.

Ascomycota bo‘limiga mansub zamburug‘lar orasida yetakchi tartiblar sifatida Pleosporales - 54 tur (27,1 %), Helotiales - 41 tur (20,6 %), Diaporthales - 25 tur (12,6 %), Botryosphaeriales - 18 tur (9,0 %), Mycosphaerellales - 15 tur (7,5 %) va Amphisphaeriales - 12 tur (6,0 %) qayd etilgan. Ushbu tartiblar jami 165 turni yoki Ascomycota bo‘limiga mansub aniqlangan turlarning 82,9 % ini tashkil etgan. Qolgan Incertae sedis, Venturiales, Hypocreales, Eurotiales, Taphrinales, Myriangiales, Xylariales, Chaetosphaeriales, Glomerellales, Dothideales, Valsariales va Coniochaetales tartiblarida 1 tadan 10 tagacha tur qayd etilib, ular jami 17,1 % ni tashkil etgan (3-rasm).




3-rasm. Xaltachali zamburug’lar bo’limining etakchi tartib va oilalarida turlarining taqsimlanish foizdagi ifodasi:

a- tartiblarda; **b** – oilalarda

Ascomycota bo‘limiga mansub turkumlarda turlarning o‘rtacha soni 2,4 tani tashkil etgan. Turlar soni o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan 14 turkum yetakchi turkumlar sifatida ajratilgan. Jumladan, *Coniothyrium* turkumida 12 tur (6,0 %), *Camarosporium* - 11 tur (5,5 %), *Diplodia* va *Podosphaera* - 10 tadan tur (5,0 %), *Strickeria* va *Cytospora* - 9 tadan tur (4,5 %), *Phyllactinia* - 8 tur (4,0 %), *Erysiphe* - 7 tur (3,5 %), *Septoria* va *Pleospora* - 5 tadan tur (2,5 %), *Phyllosticta*, *Cucurbitaria*, *Phoma* va *Alternaria* esa - 4 tadan tur (2,0 %) aniqlangan. Ushbu 14

turkum jami 102 turni yoki Ascomycota bo‘limiga mansub aniqlangan zamburug‘larning 51,3 % ini tashkil qildi (4-rasm).



4-rasm. Xaltachali zamburug’ bo’limining etakchi turkumlarda turlarining soni

Qolgan turkumlarda turlar soni nisbatan kam bo‘lgan. Xususan, *Aspergillus, Sphaerulina, Camarosporidiella, Leptosphaeria, Venturia, Drepanopeziza, Diaporthe* va *Taphrina* turkumlarida 3 tadan tur (1,5 %), *Microdiplodia, Dothidella, Asteromella, Leveillula, Monilinia, Mycosphaerella, Dinemasporium, Leucostoma, Phomopsis, Stegonsporium, Colletotrichum* va *Fusarium* turkumlarida 2 tadan tur (1,0 %) qayd etilgan. *Botryosphaeria, Dothiorella, Kabatia, Neophloeospora, Nothoseptoria, Pruniphilomyces, Phloeospora, Rhabdospora, Elsinoe, Taeniolella, Wilsonomyces, Didymella, Paraconiothyrium, Stagonospora, Cochliobolus, Stemphylium, Plenodomus, Torula, Valsaria, Lasiobotrys, Blumeriella, Diplocarpon, Gloeosporium, Arthrocladiella, Oidium, Sawadaea, Melasmia, Rhytisma, Amphisphaerella, Coryneopsis, Sporocadus, Coniochaeta, Engizostoma, Valsa, Apiognomonia, Diplodina, Ophiognomonia, Titaeosporina, Coniella, Tubercularia, Polystigma, Rosellinia, Fumago, Monodictys, Monostichella, Piggotia, Stigmella* va *Tetracoccosporium* turkumlarida esa bittadan tur (0,5 %) uchrashi aniqlandi.

Taksonomik tahlillar natijalari mikobiota tarkibida Bazidiomitset bo’limi Agaricomycetes sinfi vakillarining yaqqol ustunligini ko‘rsatdi. Mazkur sinfga mansub zamburug‘lar 5 ta tartib, 11 ta oila va 23 ta turkumni qamrab olib, jami 32 ta tur (61,5 %) bilan tadqiqot hududi mikobiotasining asosiy qismini tashkil etishi aniqlandi. Keyingi o‘rinda esa Pucciniomycetes sinfi vakillari qayd etilib, ular 1 ta tartib, 6 ta oila va 6 ta turkumga mansub bo‘lgan 20 ta tur (38,5 %) ni tashkil etdi.

Basidiomycota bo‘limida yetakchi tartiblar sifatida Pucciniales va Polyporales tartiblari ekanligini qayt etildi. Pucciniales tartibi 6 oila va 6 turkumga mansub 20 tur (38,5 %) bilan, Polyporales tartibi esa 7 oila va 15 turkumga mansub 20 tur (38,5 %) ni tashkil etgan bulsa, Hymenochaetales tartibida 1 oila va 7 turkumga mansub 9 tur (17,3 %) ekanligi aniqlandi.

2-jadval

Basidiomycota bo’limi turlarining taksonomik taxlili

Tartib	Oila	Turkum	Tur	% Hisobida
Pucciniales	6	6	20	38,5 %
Agaricales	1	1	1	1,9 %
Gloeophyllales	1	1	1	1,9 %
Hymenochaetales	1	7	9	17,3 %
Polyporales	7	15	20	38,5 %
Russulales	1	1	1	1,9 %
Jami:	**17**	**31**	**52**	**100 %**

Qolgan Agaricales, Gloeophyllales va Russulales tartiblarida esa bittadan oila, bittadan turkum va bittadan tur qayd etilib, ularning har biri 1,9 % ni tashkil etdi. (2-jadval).

Turlar soni o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan yetakchi oilalar jami 32 turni birlashtirib, Basidiomycota bo‘limiga mansub aniqlangan turlarning 61,5 % ini tashkil etib, qolgan 13 oila tarkibida 20 tur uchrab, ular umumiy aniqlangan zamburuglarning 38,5 % ni tashkil etadi. Yetakchi oilalar sifatida Polyporaceae - 12 tur (6 turkum), Hymenochaetaceae - 9 (7), Phragmidiaceae - 6 (1) turni o’z ichiga olgan (5-rasm). Shuningdek, qolgan Melampsoraceae – 5 tur (1 turkum), Gymnosporangiaceae – 4 (1), Pucciniaceae – 3 (1), Fomitopsidaceae – 2 (2), Meruliaceae – 2 (2), Tranzscheliaceae, Incertae sedis (noma’lum), Schizophyllaceae, Gloeophyllaceae, Ganodermataceae, Grifolaceae, Irpicaceae, Laetiporaceae, Stereaceae oilalarda bittadan tur va turkum to’g’ri kelishi aniqlandi.



5-rasm. Bazidiali zamburug’lar bo’limining etakchi tartib va oilalarida turlarining taqsimlanish foizdagi ifodasi: a - oilalarda; b – turkumlarda

Basidiomycota bo‘limiga mansub turkumlarda turlarning o‘rtacha soni 1,7 tani tashkil etib, turlar soni o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan 7 turkum yetakchi turkumlar sifatida qayd etildi. Jumladan, *Phragmidium* turkumida 6 tur (11,5 %), *Melampsora* turkumida 5 tur (9,6 %), *Gymnosporangium* va *Lentinus* turkumlarida 4 tadan tur (7,7 %), *Puccinia, Phellinus* va *Trametes* turkumlarida esa 3 tadan tur (5,8 %) uchrashi aniqlandi. Ushbu 7 turkum jami 28 turni yoki Basidiomycota bo‘limiga mansub aniqlangan zamburug‘larning 53,8 % ini tashkil etdi. Qolgan *Tranzschelia, Aecidium, Schizophyllum, Neolentinus, Fomitiporia, Fuscoporia, Inonotus, Phellinopsis, Tropicoporus, Sanghuangporus, Fomitopsis, Laetiporus, Ganoderma, Grifola, Trametopsis, Phaeolus, Mycoacia, Bjerkandera, Cerioporus, Coriolopsis, Daedaleopsis, Fomes, Szczepkamyces* va *Stereum* turkumlarida bittadan tur (1,9 %) uchrashi qayd etildi.

Tadqiqotlar davomida daraxt va buta mikobiotasida fan uchun yangi bo‘lgan 1 tur hamda O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi bo‘lgan 17 tur aniqlandi. Fan uchun yangi tur *Cucurbitaria berberidicola* Appad., Gafforov, Abdurazakov & K.D. Hyde. bo‘lib, u *Berberis integerrima* Bunge. o‘simligida qayd etilgan. O‘zbekiston mikobiotasi uchun yangi sifatida aniqlangan turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari yaratilgan (3-jadval, 6-9-rasmlar).


3-jadval

Fargona vodiysi mikobiotasi uchun yangi topilmalar

Fan uchun yaangi tur	
Berberis integerrima Bunge.	*Cucurbitaria berberidicola* Appad., Gafforov, Abdurazakov & K.D. Hyde.


O’zbekiston uchun yangi turlar	
Caragana spinosa (L.) Vahl ex Hornem.	*Nothoseptoria caraganae* (Henn.) Crous & Bulgakov.
Robinia pseudoacacia L.	*Phloeospora robiniae* (Lib.) Höhn.
Ribes meyeri Maxim.	*Septoria ribis* (Lib.) Desm.
Populus euphratica Olivier.	*Sphaerulina frondicola* (Fr.) Verkley, Quaedvl. & Crous.
Atraphaxis pyrifolia Bunge.	*Camarosporium atriplicis* J.V. Almeida & Sousa da Câmara.
Tamarix aralensis Bunge.	*Camarosporium potebniae* Sacc. & Trotter
Caragana alaica Pojark.	*Camarosporium caraganicola* (Phukhams., Bulgakov & K.D. Hyde) Phukhams., Wanas. & K.D. Hyde
Caragana halodendron (Pall.) Dum.Cours.	*Phoma halimodendri* Gucevič.
Populus nigra L.	*Venturia tremulae* Aderh. var. grandidentatae M. Morelet.
Ulmus minor Mill.	*Dothidella ulmi* (C.-J. Duval) G. Winter.
Ribes meyeri Maxim.	*Drepanopeziza ribis* (Rehm ex Kleb.) Höhn.
Caragana spinosa (L.) Vahl ex Hornem.	*Diaporthe caraganae* Jacz.
Cydonia oblonga Mill.	*Diaporthe eres* Nitschke.
Fraxinus raibocarpa Regel.	
Fraxinus sogdiana Bunge.	
Lonicera simulatrix Pojark.	
Platanus orientalis L.	*Apiognomonia veneta* (Sacc. & Speg.) Höhn.
Prunus amygdalus Batsch.	*Colletotrichum coccodes* (Wallr.) S. Hughes.
Malus domestica (Suckow) Borkh.	*Colletotrichum gloeosporioides* (Penz.) Penz. & Sacc.
Lycium dasystemum Pojark.	*Aecidium lycii* Arthur.






6-rasm. *Venturia tremulae* Aderh. *var. grandidentatae* M. Morelet. – *Populus nigra* L.
A – xo’jayin o’simlik; B – GAT xarita






7-rasm. *Apiognomonia* veneta (Sacc. & Speg.) Höhn. – *Platanus orientalis* L.
A – xo’jayin o’simlik; B – GAT xarita





8-rasm. *Dothidella ulmi* (C.-J. Duval) G. Winter – *Ulmus minor* Mill.
A – xo’jayin o’simlik; B – GAT xarita





9-rasm. *Aecidium* lycii Arthur. – *Lycium dasystemum* Pojark.
A – xo’jayin o’simlik; B – GAT xarita

Farg‘ona vodiysi daraxt va butalari mikobiotasini Markaziy Osiyoning ayrim hududlari mikobiotasi bilan qiyosiy tahlil qilish bo‘limida zamburug‘larning zamonaviy nomenklaturasida mavjud bo‘lgan ayrim taksonomik tafovutlar inobatga olinib, qiyosiy tahlil turkum va tur darajasida amalga oshirildi. Farg‘ona vodiysi mikobiotasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida tadqiqot natijalari Toshkent Botanika bog‘i yuksak o‘simliklari, Qashqadaryo vohasida introduksiya qilingan daraxt va butalar hamda Qirg‘iziston Respublikasi o‘rmonlarida tarqalgan daraxt va butalar mikobiotasi bilan solishtirildi. Taqqoslash uchun hududlar ularning tabiiy-geografik sharoiti, joylashuvi va o‘simliklar hayotiy shakllaridagi farqlarni hisobga olgan holda tanlab olingan. Farg‘ona vodiysi daraxt va butalari zamburug‘larining Markaziy Osiyoning ayrim hududlari mikobiotasi bilan umumiy o‘xshashlik darajasi P. Jaccard (1901) formulasi asosida aniqlangan. Qiyosiy tahlilda sistematik guruhlar, asosan, yetakchi turkum va turlar darajasida baholangan.

Farg‘ona vodiysi va Qashqadaryo vohasi mikobiotasi o‘rtasidagi o‘xshashlik koeffitsienti turkumlar darajasida 0,19 ni, turlar darajasida esa 0,07 ni tashkil etdi. Bunda Qashqadaryo vohasi mikobiotasida qayd etilgan 43 turkumdan 25 tasi, 120 turdan esa 23 tasi Farg‘ona vodiysi mikobiotasi bilan umumiyligi aniqlandi.

